




## 2021- yil yanvar-iyun oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyatida jami **2391,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **105,8 %** ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2465** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **312** taga oshdi.



### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % (01.07.2021)
	01.07.2020- yil	01.07.2021- yil	
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2153</b>	<b>2465</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	704	781	31,7
tumanlar:			
Mingbuloq	79	77	3,1
Kosonsoy	265	270	11,0
Namangan	122	142	5,8
Norin	105	131	5,3
Pop	77	112	4,5
To'raqo'rg'on	89	111	4,5
Uychi	198	223	9,0
Uchqo'rg'on	124	171	6,9
Chortoq	144	164	6,7
Chust	151	182	7,4
Yangiqo'rg'on	95	101	4,1




**Ma'lumot uchun:** Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (31,7%), Kosonsoy tumani (11,0 %) va Uychi (9,0 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,1 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,1 %), Poptumani (4,5 %), To'raqo'rg'on (4,5 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 76,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 183,9 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 27,1 % ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **65,2 %**i) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-iyun
- 2020- yil yanvar-iyun

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **68,3 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,6 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etgan holda **1633,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **28,5 %** ni tashkil etdi yoki **681,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **129,3 %** ni tashkil etdi.






## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 95,8 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 103,0 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 2295,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 126,9 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.

### IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari  
2021- yil yanvar-iyun oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2391,3</b>	<b>95,8</b>	<b>100,0</b>	<b>2295,5</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	675,8	7,7	8	668,1	31
tumanlar:					
Mingbuloq	73,8	4,9	5,1	68,9	2,6
Kosonsoy	212,6	8,6	9	204	7,1
Namangan	200,7	7,1	7,4	193,6	11,4
Norin	111,3	4,8	5	106,5	3,4
Pop	188,2	30,3	31,6	157,9	3,2
To'raqo'rg'on	132,8	5,5	5,7	127,3	8,5
Uychi	252,9	9,3	9,7	243,6	10,6
Uchqo'rg'on	137,8	4	4,2	133,8	4,5
Chortoq	147,2	4	4,2	143,2	5,5
Chust	139,5	4,8	5,1	134,7	5,9
Yangiqo'rg'on	118,6	4,8	5	113,8	6,3

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda






## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>2391,3</b>	<b>105,8</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	675,8	102,6	28,2
tumanlar:			
Mingbuloq	73,8	102,1	3,1
Kosonsoy	212,6	86,5	8,9
Namangan	200,7	110,2	8,4
Norin	111,3	118,5	4,6
Pop	188,2	125,8	7,9
To'raqo'rg'on	132,8	106,8	5,6
Uychi	252,9	107,2	10,6
Uchqo'rg'on	137,8	117,6	5,7
Chortoq	147,2	113,1	6,2
Chust	139,5	101,9	5,8
Yangiqo'rg'on	118,6	104,6	5

2021- yil yanvar-iyun oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (675,8 mlrd. so'm) Uychi (252,9 mlrd.so'm), Kosonsoy (212,6 mlrd. so'm), Namangan (200,7 mlrd. so'm), Pop (188,2 mlrd. so'm), Chortoq (147,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

211-72-00(5020)